

RIVOJLANISHIDA MUJASSAM NUQSONLARGA EGA BO‘LAR BILAN KORREKSION-PEDAGOGIK YORDAM TIZIMIDA OILANING ROLI

РОЛЬ СЕМЬИ В СИСТЕМЕ КОРРЕКЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ ДЕТЯМ С СОЧЕТАННЫМИ НАРУШЕНИЯМИ В РАЗВИТИИ

THE ROLE OF THE FAMILY IN THE SYSTEM OF CORRECTIONAL AND PEDAGOGICAL ASSISTANCE FOR CHILDREN WITH MULTIPLE DISABILITIES IN DEVELOPMENT

AYUPOVA MUKARRAM YULDASHEVNA

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti Logopediya
kafedrasi professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada rivojlanishida mujassam nuqsonlarga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik yordam tizimida oilaning o‘rni har tomonlama tahlil qilingan. Unda oila muhitining bola shaxsini shakllantirishdagi hal qiluvchi roli, ota-onalarda kuzatiladigan psixologik muammolar va ularni faol hamkorlik pozitsiyasiga o‘tkazish choralari yoritilgan. L. Bridjmen, Ye. Keller va O. Skoroxodova kabi shaxslar tajribasiga tayanib, oila, pedagog hamda mutaxassislar o‘rtasidagi kompleks hamkorlik bolani mustaqil hayotga tayyorlashning asosiy omili ekani ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, oila, mutaxassis, o‘yin faoliyati, ko‘r, kar, rivojlanish, mujassam nuqson

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется роль семьи в системе коррекционно-педагогической помощи детям с сочетанными нарушениями в развитии. Освещается решающая роль семейной среды в формировании личности ребенка, анализируются психологические проблемы родителей и меры по их вовлечению в активное сотрудничество. Опираясь на исторический опыт Л. Бриджмен, Е. Келлер и О. Скороходовой, научно обосновано, что комплексное взаимодействие семьи, педагогов и специалистов является ключевым фактором успешной социализации и подготовки ребенка к самостоятельной жизни.

Ключевые слова: личность, семья, специалист, игровая деятельность, слепой, глухой, развитие, сочетанное нарушение.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the family's role in the system of correctional and pedagogical assistance for children with multiple disabilities. It highlights the crucial impact of the family environment on the formation of the child's personality, analyzes the psychological challenges faced by parents, and outlines measures to transition them toward active cooperation. Drawing upon the historical experiences of L. Bridgman, H. Keller, and O. Skorokhodova, the study scientifically substantiates that comprehensive collaboration among the family, educators, and specialists is a key factor in preparing the child for an independent life.

Keywords: personality, family, specialist, play activity, blind, deaf, development, multiple disability.

Kirish

Bola shaxsini shakllanishi va rivojlanishida oila tarbiyasiga alohida o'rin ajratiladi. Bolaning atrofidagilar, ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabati, ota- ona va bolaning, ota- onalar va mutaxassislarining o'zaro munosabatining qandayligiga bog'liq. Shuni tan olish kerakki, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola tarbiyalanayotgan hech bir oilani, uning oila a'zolari o'rtasidagi murakkab munosabatlar muammosi chetlab o'tmaydi, bunday oilalarning har birida bolani oilaviy sharoitda tarbiyalash va hayot tarzini tashkil etishga nisbatan ko'pgina muammolar paydo bo'ladi. Rivojlanishida bir qancha nuqsonlar bilan tug'ilgan bola ota- onalarni esankiratib qo'yadi. Ko'pincha bu kuchli psixologik stress holida kuzatilib, ota- onalar qo'rquv va o'zlarini yo'qotib qo'yanlik holatida bo'ladi. Ruhiy ezilish, ta'sirchanlik, indamaslik, o'zining to'laqonli emasligidan siqilish va aybdorlik hissi doimo bunday ko'pgina oilalarning "hamrohi" bo'ladi. Mana shuning oqibatida oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni buzilishi, har bir oila a'zosini o'z muammolari doirasida o'ralashib qolishi sodir bo'ladi.

Psixologik stressni bartaraf etishning shartlaridan biri ota- onalarni bola tarbiyasi bilan bog'liq faol faoliyatga kirishishidir. Ularning ko'pchiligi asta-sekin o'z bolasiga yordam berishning aniq yo'llarini topishga kuch topadi va kirishadi. Mutaxassisning maqsadi- ota- onalarga ta'lim va tarbiya fanlarini o'zlashtirishga yordam berish. Oxir oqibat, ota- onalar mujassam nuqsonga ega bo'lgan bolalarni ijtimoiylashtirishda, butun korreksion- pedagogik yordam ko'rsatish tizimining muhim ishtirokchilari ekanliklarini anglashlari kerak.

N.Braun, katta yoshli ko'r - kar bolaning otasi, ko'r - kar tug'ilgan bolalarning ota- onalarida paydo bo'ladigan muammolarni muhokama qila turib, shunday yozadi: "Mana biz bilan nimalar sodir bo'ladi: biz – azobli izlanishdamiz... hali bu og'ir izlanish davri

davom etar ekan, biz ham, maslahatchidan shifokorga, keyin mutahassisga tomon yuguramiz, bizning hayotimiz va bizning uyimiz boshqa odamlarning kun tartibiga va talablariga bog'liq bo'lib qoladi. Bu yerda biz ham hamma kabimiz: odamlarda faqat insoniy reaksiyalar mavjud bo'lib, ularni to'g'ri qo'llay olishlari kerak. Men azoblanish davri haqida ko'p o'qidim va ota- onalarning, ularda yo'q bolalari haqida so'zlab berishlariga ko'nikib qoldim. Ammo, men bolaga nisbatan bunday munosabatga qarshiman. Men shu narsaga aminmanki, biz sizda yo'q bola haqida emas, balki, bizda bor bola bilan nimalar sodir bo'lganligi haqida gaplashishimiz kerak. Biz bolani dunyoga, dunyoni bolaga yaqinlashtirish uchun va birinchi navbatda unga zarur narsalar- bu to'liq ma'lumotlar, amaliy maslahatlar berishda javobgarlikni oladigan birinchi odamlar hisoblanamiz". Bundan boshqacha bo'lishi mumkin emas, aynan yaqinlari bolaning rivojlanish jarayonining bevosita ishtirokchilari bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili

Rivojlanishida mujassam nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar bilan korreksion- pedagogik ishlarni tashkil etishda oilaning roli masalasi maxsus pedagogika va defektologiya sohasida keng o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar asosan bola shaxsining rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi hamda korreksion ta'lim samaradorligida oilaviy muhitning hal qiluvchi omil ekaniga qaratilgan.

Avvalo, mahalliy tadqiqotchilar orasida A.Yu. Ayupova va Z.M. Axmedovalarning ishlarida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni reabilitatsiya qilish jarayonida oila va mutaxassislar hamkorligi asosiy omil sifatida ko'rsatiladi. Mualliflar fikricha, bola rivojlanishidagi ijobiy natijalar faqat tibbiy yoki pedagogik yondashuvga emas, balki oilaning faol ishtirokiga ham bevosita bog'liqdir [1, b. 12–18].

Shuningdek, I.M. Bgzhnokova o'z tadqiqotlarida og'ir va murakkab rivojlanish buzilishlariga ega bolalarni tarbiyalash jarayonida oilaviy muhitning psixologik holatiga alohida e'tibor qaratadi. U otalarni yuzaga keladigan stress, ruhiy tushkunlik va moslashuv qiyinchiliklari bolaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, otalarning faol pozitsiyaga o'tishi korreksion jarayon samaradorligini oshirishini asoslab beradi [2, b. 45–52].

R.M. Boskis esa eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash tajribasini o'rganar ekan, oilaviy tarbiya va erta aralashuvning ahamiyatini alohida ko'rsatadi. Uning fikricha, bola nutq va muloqot ko'nikmalarini egallashida ota-onaning doimiy qo'llab-quvvatlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon maxsus pedagogik yondashuv bilan uyg'unlashishi lozim [3, b. 33–40].

M.V. Jirenkova tadqiqotlarida esa kompleks rivojlanish nuqsonlariga ega bolalar bilan ishlashda individual yondashuv va oilaviy muhitning barqarorligi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Muallif oilani korreksion jarayonning ajralmas qismi sifatida ko'rib, ota-onalarni pedagogik jarayonga faol jalb etish zarurligini ta'kidlaydi [4, b. 28–36].

Xorijiy tajribalar tahlili ham shuni ko'rsatadiki, Lora Bridjmen va Yelena Keller kabi tarixiy misollar oilaning erta tarbiyaviy ta'siri va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud bo'lganda, hatto og'ir nuqsonlarga ega bolalarda ham yuqori rivojlanish natijalariga erishish mumkinligini isbotlaydi. Bu tajribalar keyingi defektologik yondashuvlarning shakllanishiga asos bo'lgan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlanishida mujassam nuqsonlarga ega bolalar bilan korreksion-pedagogik ishlarni samarali tashkil etishda oila markaziy subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Ota-onalarning pedagogik

jarayondagi faol ishtiroki, mutaxassislar bilan uzviy hamkorligi va bolaning rivojlanishiga nisbatan ijobiy hissiy munosabati korreksion ta'lim natijadorligini sezilarli darajada oshiradi.

Metodologiya

Ushbu maqolada rivojlanishida mujassam nuqsonlarga ega bolalar bilan korreksion-pedagogik yordam tizimida oilaning rolini o'rganishda nazariy-tahliliy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini maxsus pedagogika, defektologiya va korreksion ta'limga oid ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish hamda tizimlashtirish tashkil etadi.

Shuningdek, tarixiy-pedagogik tajribalar va amaliy misollarni (ko'r-kar bolalar ta'limi bo'yicha klassik holatlar) tahlil qilish orqali oilaning korreksion jarayondagi ishtiroki va uning samaradorlikka ta'siri ochib berildi. Tadqiqotda induktiv va deduktiv yondashuvlardan ham foydalanilib, oila-mutaxassis-bola o'zaro hamkorlik tizimining pedagogik ahamiyati asoslab berildi.

Natija va muhokama

Ko'r-karlarning rivojlanishidagi yutuqlaridan dalolat beruvchi tarixiy dalillarga e'tibor qaratamiz. Tarixdan Lora Bridjmen va Yelena Kellerlarni esga olamiz, ular aynan oilaviy sharoida ta'lim va tarbiya tomon birinchi qadamlarini qo'yanlar. Lora Bridjmen ko'rish va eshitishdan 2 yoshida mahrum bo'lgan. Qizcha 8 yoshigacha oilada tarbiyalangan. Onasi uni atrofidagi predmetlarni paypaslashga, o'rganishga harakatlarini, xo'jalik ishlari bilan band onasining qo'l harakatlarini kuzatishini doimo rag'batlantirib borgan. Oqibatda, Lora Bostondagi (AQSH) Perkinsovskiy maktabida o'qiganida, uning o'qituvchisi shifokor Samuil Tridli Xouv, uni atrof olamdagi predmetlar va ularning ishlatilishi haqidagi bilimlaridan o'qitishda foydalandi. Lora Bridjmen o'qish, yozish, oddiy fikrlarini namoyon qilishni, ba'zi qo'l ishlarini (tikish, to'qish) o'rgandi va shu tariqa o'zini boqish

uchun pul topa oldi.

Oradan 40 yil o'tgandan keyin Ch. Dikens tomonidan Lora Bridjmenning ta'limdagi yutuqlarini, uning "Amerikacha qaydlar"ida tavsiflanishini, boshqa qizcha - Yelena Kellerning onasi o'qiydi. Bu qizcha to'liq ko'r, kar va soqov bo'lib, bu paytda uning yoshi oltida edi. Doktor Xouvning metodlari haqidagi Dikensning hikoyasi uning onasini qalbida umid uyg'otdi. U Perkins universiteti bilan bog'landi, ularga yordam so'rab murojaat qildi va Kellerlar oilasiga Perkins maktabining bitiruvchisi Anna Sullivan o'qituvchi bo'lib ishlashga keldi. Ammo, halitdan oilada pedagog bilan mashg'ulotlarni boshlanishi uchun bolada ijobiy vaziyatlar to'plangan edi. Qizcha tashqi olamdan uzilib qolmagan edi. Kasaldan tuzalab, u yana yurishni o'rgandi va onasini etagidan tutib, onasi xo'jalik ishlari bilan shug'ullanganda har doim va har joyda birga bo'ldi. Uning qo'llari onasi olgan har bir predmetni paypaslab ko'rdi, onasining qo'l harakatlarini barini kuzatdi. Shu tariqa Yelena predmetlar bilan uy sharoitida tanishdi, ularning har birini nomini bildi, ular bilan tug'ri munosabatda bo'lishni o'rgandi. Asta-sekin qizchada u muloqat qilishida yordam beradigan birinchi imo- ishoralar paydo bo'ldi (boshini sisilkitish- rozilik, qo'llari bilan itarish- ket va hakoza). O'qituvchi kelguniga qadar ko'r- kar – soqov Yelena Keller mustaqil ravishda uyda, bog'da, tomorqada, mo'ljal oladi, uydagi predmetlar va xo'jalik asboblari bilan tanish edi. Qizchada imo- ishoralar yaxshi rivojlangan bo'lib, u bundan dugonasi va atrofidagi kattalar bilan muloqatda keng foydalanardi. Bularning hammasi ijobiy vaziyatlarning birlashishiga xizmat qilib, u keyingi muvoffaqiyatli ta'limi uchun sezilarli tarzda ta'sir ko'rsatadi.

Yelena Keller nomi, uning taqdiri dunyoda yashirin imkoniyatlarini amalga oshirishdagi kamyob misol sifatida keng tanildi. Keller yozuvchi va mashhur jamoat arbobi bo'ldi.

Ko'r- karlarning ta'lim va tarbiyasi haqidagi chet eldagi ajoyib voqealar bilan tanisha turib, Olga Ivanovna Skoroxodova nomi bilan bog'liq rus defektologlarining bu toifa bolalar bilan olib borgan ishlarini eslab o'tmaslikning iloji yo'q.

Uning taqdiri bolaligidan boshqalarnikidan tubdan farq qilardi. Olya kambag'al dehqon oilasida dunyoga keldi. Otasi erta urushga ketdi, onasi bolalarni boqish uchun ko'p ishladi. Qizcha 5 yoshligida meningit bilan og'ridi, uzoq vaqt unga onasi qaradi, ammo bola sog'aya boshlaganda, u to'liq ko'r bo'lib qolganligi aniqlandi, tez orada eshitishni ham yo'qotdi.

O'qitish natijasida qizchaning nutqi tiklandi, daktil alifbosidan va nuqtali- relyefli (Brayl alifbosi) shiriftdan foydalanilgan maxsus metodiklar yordamida Olga bilan maktab dasturi bo'yicha tizimli ta'lim olib borildi. Natijada u o'rta, keyin oliy ma'lumot oldi, Moskva Universitetining filologiya fakultetini tamomladi. Olga Ivanovna Skorxodova erishgan yuqori intellektual rivojlanish darajasi I.A.Sokolyanskiy tomonidan ishlab chiqilgan ko'r- karlarni o'qitish bo'yicha tizimning haqqoniyligining muhim isboti hisoblanadi.

Mujassam nuqsonga ega bo'lgan va umuman har qanday bolani o'qitishda ko'zlangan natijaga shu zahotiyoq erishilmaydi. Asta-sekin bola bilan ishlash tajribasini to'plab, boshqa pedagoglarning va oilalarning, ota- onalarning (o'qituvchi va shifokorlar yordamida) tajribalaridan foydalanib bola hayotini yo'lga qo'yishadi, bunda bolani kelajakdagi katta hayotga tayyorlashga ma'sul shaxslar kuchi birlashadi. Agar yaqinlarining unga nisbatan munosabati faqatgina passiv- aziyatli bo'lsa, unda bunday bolaga yordam berib bo'lmaydi. Ota- onalar murojaat qiladigan mutaxassislar eng avvalo ularga zarur ma'lumotlar berishi, yagona maqsad sari borishda mutaxassislar bilan hamkorlikdagi o'zaro munosabatni qanday to'g'ri tashkil etish lozimligini aytishi kerak.

Mujassam nuqsonga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning samaradorligi to'liqligicha barcha korreksion- pedagogik jarayonning ishtirokchilari va ota- onalarning kelishilgan va hamkorlikdagi faoliyatiga bog'liq bo'lib, ularning har biri bolaning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Shunga qaramasdan, bu jarayondagi asosiy rol bolaning yaqinlariga ajratiladi. Oila- bu qadrdon uyi bo'lib, bunda bola yashaydi, o'ynaydi, olam va odamlarni tanishag o'rganadi. Qalban yaqinlik, o'zaro mehr- muhabbat, bolaga nisbatan ijobiy hissiy munosabat uning uchun murakkab va qiyin bo'lgan ta'lim va tarbiya jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday bolaning kelajagi unga nisbatan har tomonlama mohirona, ziyraklik bilan yondoshuvga bog'liq, bunda yaqinlarining roli beqiyosdir.

Mutaxassislar- bolalar maslahatxonasining xodimlari, tibbiy-psixologo- pedagogik komissiya a'zolari, pedagoglar o'z navbatida ota- onalarga bolani yaxshiroq bilish, ularga nuqson mazmunini ochib berishda yordam beradi. Ota- onalarni ma'lum vaqt esankirab yurishiga qaramasdan, ularni tekshirishda ishtirok etishi va psixolog, pedagog, shifokorlar bilan suhbatlari, ularga bolalarining yashirin imkoniyatlarini anglash, aniqlash imkonini beradi. Shunga ko'ra, ota- onalar ular hayoti uchun muhim ma'lumotlar - nimadan boshlash kerak, nima qilish kerak, bolaga qanday qilib nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan to'g'ri yordam ko'rsatish mumkin - degan savollarga javob oladi.

Mutaxassislarni ota- onalarga nisbatan amalga oshiradigan vazifasi shundaki, asta- sekin va ketma -ket oilani korreksion ish jarayoniga tortish hisoblanadi. Bu ota- onalarning bolalarni umumiy psixologik rivojlanishi muammolari haqida ko'proq bilimga ega bo'lishlarini, ularni ish usullari va metodlari bilan tanishtirishni, ta'limda bevosita ishtirok etish va bolani korreksion-ta'lim jarayonida mutaxassislar bilan o'zaro munosabatini rivojlanish dinamikasini

kuzatish imkonini ko'zda tutadi.

Ijobiy natijalarga erishish uchun ota- onalarga mo'ljallangan qator tadbirlar o'tkazish zarur. Bu maslahatlar, pedagoglar va ota- onalarning hamkorlikdagi faoliyatlaridan lavhalar, oilaviy sharoitda bola bilan ishlashning maqsad va vazifalarini aniqlashtiruvchi suhbat- tushuntirishlar bo'lishi mumkin.

Bolalarni tarbiyalashda ota- onalarning katta ulushi ilk bolalik davriga to'g'ri kelib, bu davrda yetakchi faoliyat bola bilan hissiy muloqat hisoblanadi. Bu bosqichda psixomotor funksiyalar rivojlanadi, nutqni egallashning asosiy sharti, taqlid qobiliyati shakllanadi. Ota- onalarning vazifasi-rivojlanayotgan funksiyalaga yo'naltirishdir, ammo buni mantiqsiz amalga oshirmasliklari kerak. Rivojlanishni korreksiyalashga qaratilgan tadbirlarni belgilangan tizimda amalga oshirish zarur. Bunday ta'sir dasturi pedagog, psixolog shifokorlar bilan hamkorlikda tuziladi. U turli xil mashqlarni kun tartibi, bola bilan o'ynash va sayr vaqtida bajarishni o'z ichiga qamrab olishi mumkin. Mutaxassislar tavsiyasiga asosan ota- onalar zarur rivojlantiruvchi o'yinchoqlar, rasml materiallar va boshqalarni oladi.

Maktabgacha yosh davrida ota- onalar bolalari bilan maxsus pedagoglar va psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan topshiriqlarni bajaradilar. Ota- onalar ta'lim jarayonida olingan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Maktab davrida bolalarning muloqat doirasi kengayadi, faoliyat turlari murakkablashadi, ularning mustaqillik darajasi ortadi. Ta'lim jarayoni davom etadi va chuqurlashadi, va bunda ota- onalarning vazifasiga o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish, shuningdek, ularni yangi ma'lumotlar va ko'nikmalar bilan boyitish ham kiradi. Bu davrda bolalarda ma'lum qiziqishlar paydo bo'ladi va shunga ko'ra ularning har biri yoqtirgan ishiga e'tibor qarata boshlaydi. Bunda ota- onalar bolalarining yaqin do'stlari

va yordamchilari bo'lishi kerak.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, rivojlanishida mujassam nuqsonlarga ega bolalarni korreksion-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimida oilaning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslandi. Oila bolaning ilk ijtimoiy muhiti sifatida uning shaxsiy rivojlanishi, emotsional holati va ijtimoiy moslashuv jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ota-onalarning dastlabki psixologik qiyinchiliklarni yengib o'tishi, mutaxassislar bilan hamkorlikka kirishishi hamda korreksion jarayonda faol ishtirok etishi bolaning rivojlanish dinamikasini sezilarli darajada yaxshilaydi. Aksincha,

oiladagi beqaror psixologik muhit va passiv munosabat korreksion ishlar samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, oila va mutaxassislar o'rtasidagi uzviy hamkorlik tizimi bola uchun yagona rivojlantiruvchi muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv bolaning mavjud imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirish, uni ijtimoiy hayotga tayyorlash va mustaqil faoliyatga yo'naltirish imkonini beradi. Mujassam nuqsonli bolalar bilan ishlashda kompleks yondashuvni kuchaytirish, ota-onalarning pedagogik kompetentligini oshirish hamda oilani korreksion jarayonning faol subyekti sifatida shakllantirish eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. Ayupova M.Yu., Axmedova Z.M. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar reabilitatsiyasi. – Toshkent, 2023. – 180 b.
2. Бажнокова И.М. Воспитание и обучение детей и подростков с тяжёлыми и множественными нарушениями развития. – Москва: Владос, 2009. – 256 с.
3. Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушениями слуха. – Москва: Дашков и Ко, 2008. – 192 с.
4. Жиренкова М.В. Дети с комплексными нарушениями развития: педагогическая помощь. – Москва: Изд-во центр «Академия», 2008. – 214 с.
5. Выготский Л.С. Основы дефектологии. – Москва: Педагогика, 1983. – 368 с.
6. Лурия А.Р. Проблемы высших корковых функций человека. – Москва: МГУ, 2002. – 412 с.
7. Соколянский И.А. Обучение слепоглухих детей. – Москва: Просвещение, 1989. – 240 с.
8. Мастюкова Е.М. Лечебная педагогика: ранний и дошкольный возраст. – Москва: Владос, 2007. – 304 с.
9. Данилова Л.А. Семья и ребенок с ограниченными возможностями здоровья. – Санкт-Петербург: Речь, 2011. – 176 с.
10. Marchesi A. Special Education Needs and Inclusion. – London: Routledge, 2015. – 320 p.